

INDEKS 8030

**ХОРАЗМ МАЪМУН  
АКАДЕМИЯСИ  
АХБОРОТНОМАСИ**



---

**ВЕСТНИК ХОРЕЗМСКОЙ АКАДЕМИИ МАЬМУНА  
BULLETIN OF KHOREZM ACADEMY MAMUN**

---

**2022 - 3**

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР  
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ  
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

# **ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон  
қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт,  
филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик  
диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия  
этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**2022-3  
Вестник Хорезмской академии Маъмуна  
Издается с 2006 года**

**Хива-2022**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari / Nurmatov SH., Mirzajonov Q., Avliyoqulov A., Bezborodov G., Ahmedov J., Teshaev SH., Niyozaliev B., Xoliquov B va b.; SHamsiev A tahriri ostida.–Toshkent:O'zPITI,2007. – 132-139 b.
- 2.Eshmirzayev K.E., Yusupov X.Y. Don ekinlaridan yuqori hosil yetishtirish. Toshkent. «Mehnat». 1995. 66-b.
3. Комилов Б.С., Ибрагимов Н.М., Ражабов Т.Я. Суғоришининг кузги бүгдой хосилдорлигига тъсири. // Фермер хўжаликларида пахтачилик ва ғаллачиликни ривожлантиришнинг илмий асослари: Халқаро илмий-амалий конференция маърузалари асосидаги мақолалар тўплами. – Тошкент, 2006

**U'O'T 634.11****OLMA DARAXTI NOVDALARINING O'SISHI VA MEVA SHAKLLANISHINING BIOMETRIK TAVSIFIGA ME'YORLASHGAN QIRQISHNING TA'SIRI***R.Yunusov, q/x.f.n., dotsent, Buxoro davlat universiteti, Buxoro**F.A. Ganiyeva, o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro**H.X. Salimova, katta o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro**B.Sh. Islomov, talaba, Buxoro davlat universiteti, Buxoro*

**Annotasiya.** Mazkur maqolada Buxoro viloyati Buxoro tumani, "Amin Hayot bo'g'i" fermer xo'jaligini tuproq-iqlim sharoitida intensiv bog'ida 3 xil rayonlashtirilgan olma daraxtini novdalarining o'sishi va meva shakllanishining biometrik tavsifiga kesish ta'siri keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** Tuproq, iqlim, intensiv bog'dorchilik nav-payvandtaglar kombinasiyalari, keshish usullari, o'sish va meva shakllanishi, biometrik tavsifi.

**Аннотация.** В данной статье приведено влияние обрезки районированных сортов на рост и плодообразование деревьев яблони в почвенно-климатических условиях Бухарского района, Бухарского района, «Амин Хаёт боги» фермерского хозяйства.

**Ключевые слова.** Почва, климат, интенсивное садоводство, сорт-подвойные комбинации, районированные сорта, рост и плодообразование, биометрические характеристики.

**Abstract.** This article shows the influence of pruning zoned varieties on the growth and fruit production of apple trees in the soil and climatic conditions of the Bukhara region, Bukhara region, "Amin Hayot bogi" farm.

**Key words.** Soil, climate, intensive gardening, variety-rootstock combinations, zoned varieties, growth and fruit production, biometric characteristics.

Kirish. Intensive bog'dorchilikda meva ishlab chiqarishni keskin oshirish, sifatini tubdan yaxshilash hamda tannarxini kamaytirish asosan yangi intensiv pakana bog'lar barpo qilish va aymi paytda mavjud bog'lardan yuqori, sifatli olma mevalari hosilini yetishtirish ko'zda tutilgan. O'zbekistonda barpo etiladigan intensiv (jadallashtirilgan) urug'li va danakli mevali bog'lar barpo qilinmoqda, mazkur mevali bog'larda daraxtlarga shakl berish, nav-payvandtaglarini maqbul turini tanlash va ularni biologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ularga muayyan shakl berish, kesish usullari va darajalari o'rganilgan bo'lsada, nav va payvandtaglarni biologik xususiyatlarni e'toborga olgan holda, daraxtlarini yoshiga qarab, hosil beruvchi 3-4 yillik shoxlarni yoshartirish sikli bo'yicha keshish usullari va darajalari hamda maqbul shakl berish tadbirlari O'zbekiston tuproq-iqlim sharoitida, shu jumladan Buxoro viloyatida ham ilmni asoslangan holda atroficha o'rganilmagan.

Ilmiy ishning vazifasi shundan iboratki hosil beruvchi mevali daraxtlarning o'suvchi shoxlarini qirqish jarayonida uning qirqish usuli va darajasiga bog'liqni o'rganish, asosiy fitometrik va biometrik ko'rsatkichlarining o'sish, rivojlanish va hosildorlikka ta'sirini aniqlash, daraxt tanasining yorug'lik bilan ta'minlanganligi, daraxt tanasida generativ organlarning shakllanishi va ularning joylashishi, hosil va uning sifatiga ta'sirini o'rganishdan va meva ishlab chiqarishni iqtisodiy samaradorligini baholashdan iborat.

Kesish bog'dorchilikda kuchli ta'sir etuvchi eng muhim agrotexnik usul hisoblanadi va uning mevali daraxtlarga ta'siri qator sabablarga bo'g'liqdir. Birinchi navbatda, kesishning o'ziga xos usuli va darajalariga, uning o'tqazish muddatlariga, daraxt yoshi, nav-payvandtaglarning biologik xususiyatlariga va mevali daraxtlarni holatiga, tuproq-iqlim sharoitlari va o'tkaziladigan axrotexnik boshqa usullari bilan majmuaviy ravishda kesish usuli va darajalari qo'llanilsa, yillar davomida hosilni tartibga solish va mutasil hosilni olish imkoniyati vujudga keladi.

Kesish usuli va darajasi-mevali daraxtlarning hosilga kirish vaqtiga, hosilning hajmi hamda sifatiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. O'sish va hosil berishni tartibga solish, davriyli bilan kurashish, qishga chidamlikni oshirish ham kesish tadbiri tomonidan amalga oshiradigan eng muhim hal etuvchi vazifalaridan biridir.

Ta'jriba o'tkazish joyi va metodikasi. Ilmiy tadqiqot ishlari 2009-2016 yillar davomida Buxoro tumanida joylashgan "Amin Hayot bog'i" fermer xo'jaligida o'tkazildi. Mazkur fermer xo'jaligi sug'oriladigan zonasida joylashgan bo'lib, tuproqning hosil bo'lishi jazirama va quruq iqlim sharoitida

o'tadi va iqlim keskin continental hisoblanadi. Issiq quyoshli kunlar 240 kungacha davom etadi. "Amin Hayot bog'i" fermer xo'jalikda eng issiq kunlar yoz oyida kuzatiladi va o'rtacha havoning nisbiy namligi 40-60 % ni tashkil etadi. Tuproqning haydalma qatlamida chirindi miqdori 0,8-1,4 % ga, azotning miqdori 0,06-1,2% teng bo'ladi. Fosforming yalpi miqdori 0,11-0,18 % ga va almashinuvchan kaliy miqdori 1,5-3,0 % ni tashkil qiladi. Metrologik sharoitlarini tahlil qilishda Buxoro metrologik stansiyaning ma'lumotlaridan foydalanildi, chunki bu fermer xo'jaligi shu meteorologik stansiyasiga yaqin joylashgan, shuni qayd etish lozimki, tadqiqot yillarida mevali daraxtlarni amal davrlarida, intensiv olma navlarini parvarishlash va ulardan yuqori va sifatli hosil olish uchun ob-havo sharoitlari mos keladi [1,3,5].

Tadqiqot natijalari. Olma daraxtlarini fitometrik ko'rsatkichlari va biometric tasnifini o'rganish va aniqlash maqsadida quyidagi ko'rsatkichlar-stambning balandligi, daraxt tanasining yo'g'onligi, shox-shabbalarinin kattaligi, bir yillik novdalar o'sishning o'rtacha va umumiy uzunligi o'rganildi. O'sib ketgan shoxlarni qisqartirish mevali daraxtlarni o'sish jarayonlarini faollashtirishda va churur fiziologik o'zgarishlarni ta'minlaydigan samarali omil ekanligidan dalolat bermoqda. Olma daraxtining keshish usuli va qisqartirish darajalariga qarab, har xil darajada ta'sirlanishi kuzatildi, ya'ni, shoxlarning o'shishida skeletli shoxlarning rivojlanishi, shuningdek shox-shabbasini tanasida boshqa elementlarni o'zgarishi aniqlandi, daraxt tanasi yo'g'onlashda, shox-shabbalarning shoxlanishi qalinlashdi va barg sathining o'shishi kuzatildi [2,4,6,13].

Hosil berib bo'lgan shoxlardan o'sadigan o'mini bosuvchi uch-to'rt yillik siklik yoshartiruvchi va me'yorlangan keshish daraxtlari qo'llanilgan variantlarida qatorning bo'yicha va ko'ndalangiga shox-shabbalarni kattaligi, o'shish va rivojlanishish ko'rsatkichlari, daraxt tanasi proeksiyalari ostidagi maydonlarning o'zlashtirishi me'yoriy darajada bo'lib, jadallahshgan tipdagisi hozirzamon sanoat bog'lari uchun me'yoriy ko'rsatkichdir [7,8].

1-jadval

**Keshish usuli va darajasining hosil beruvchi novdalar miqdori va holatiga ta'siri**

Hosil berib bo'lgan o'suvchi shoxlarda yoshartiruvchi kesish variantlari	Qoldirilgan shoxlarda hosil kurtaklari soni (dona)	Hosil kurtaklarni turi, dona			Hammasi, dona
		(kolchatka) halqachalar	(prutik) xivichlar	O'suv novdalar	
<b>«Golden Delishes» olma navi</b>					
Nazorat	qisqartirilmaydi	2201	104	980	3285
3 yillik sikl	4-8 8-12 12-16 qisqartirilmaydi	1453 1480 1584 1546	66 74 82 99	651 666 714 860	2170 2229 2380 2905
4 yillik sikl	4-8 8-12 12-16 qisqartirilmaydi	1550 1610 1720 2005	74 80 98 103	696 720 762 700	2320 2410 2570 3008
<b>«Renet Smirenko» olma navi</b>					
Nazorat	qisqartirilmaydi	1993	97	890	2980
3 yillik sikl	4-8 8-12 12-16 maydi	1340 1405 1470 1738	67 79 84 93	603 621 655 749	2010 2105 2209 2580
4 yillik sikl	4-8 8-12 12-16 qisqartirilmaydi	1365 1469 1543 1785	75 79 80 95	660 669 6803 7705	2100 2208 2312 2650
<b>«Pervenes Samarkanda» olma navi</b>					
Nazorat	qisqartirilmaydi	1815	82	813	2710
3 yillik sikl	4-8 8-12 12-16 qisqartirilmaydi	1252 1258 1405 1540	58 61 65 75	560 561 630 690	1870 1920 2100 2305
4 yillik sikl	4-8 8-12 12-16 qisqartirilmaydi	1326 1406 1540 1670	60 66 71 82	594 630 650 750	1980 2102 2305 2502
Hsr <sub>095</sub> P%					25,2 2,1

Olma daraxtlarining vegetativ va reproduktiv faoliyatini tartibga solish va uni boshqarish nisbatlari agrotexnik tadbirlarning asosiy vazifalardan biri bo'lib, bunda aynan daraxtlarga muayyan shakl berish va keshish usuli va darajalariga hamda nav-payvandtaglar kombinasiyalariga, ularga shakl berish jarayonida keshish usullari va darajalariga rioya qilib kesilganda, daraxtlarni o'shish va rivojlanishi me'yorida kechib,

novdalar faqat maqbul muhitga yoki bo'lmasa maqbul sharoitlarga yaqin tomonga yo'nalishini doimo eslatib turish ko'pgina o'tqazilgan tadqiqotlarda ham ko'rsatilgan [9,10].

Daraxt navi va avlodiga xos xususiyatlari uning tashqi muhit ta'siri reaksiyasiga qarab doimiy bo'ladi. Bog'bonlarning samarali va yangi texnologik parvarishlash usullarni bilishlari ularning qanday kesish usuli va darajasini qo'llanilishiga qarab, mevali daraxtlarning o'shish va rivojlanishining ob'ektiv qonunlarga mos kelishini va soha mutaxassislari har bir usulning alohida daraxtga qay darajada ta'sir etishini aniq bilib oladi va shunga ko'ra, hosilni miqdori oshadi va sifati yaxshilanadi.

Hosil berib bo'lgan va o'sib ketgan asosiy hosil beruvchi shoxlarda yoshartiruvchi va me'yorlovchi keshish usuli va darajalari qo'llanilganda, ularning qisqarishi o'rta o'suvchi payvandtagga payvand qilingan olmaning rayonlashtirilgan navlarida bиринчи tartibdagи shoxlar uzunligining har yilgi o'sishi mevali ko'chat o'tkazilgandan keying биринчи yillarda navlar bo'yicha 39-47 sm ni tashkil etdi, bu esa olma daraxti uchun talab darajasidagi holat hisoblanadi [11,12].

Tajriba natijalaridan shu aniqlandiki, o'tkazilgan tadqiqotlar barcha yillarda o'rinosbos shox qoldirib 3-4 yillik sikl bo'yicha hosil berish uchun qo'yilgan shoxlarni yoshartiruvchi va me'yorlangan darajada kesilganda yo'g'on, hosil berib bo'lган novdalar soni nazorat variantiga nisbatan 9-31 % gacha kamayganligi kuzatildi. Meva hosil bo'lishining tuzulishida barcha o'rganilgan navlarda 59-62% halqachalar, 9-13 % gacha mevali hivichlardan ustun turadilar. Shunday qilib, hosil berib bo'lган shoxlarning yoshartirish natijasida halqachalar sonining qisqarishi kuzatilib, Golden Delishes navida 21,1% ga Renet Smirenko navida 19,8%, Pervenes Samarkanda navida esa 15,6% ga kamayganligi aniqlandi, mevali xivichlar soni navlar bo'yicha tegishlicha: 20,1 % va 15,4% kamayganligi kuzatildi (1-jadval).

2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan shu anaiq bo'ldiki, hosil kurtaklarning umumiyl miqdoridan, faqat 12-13 % hosilga aylanadi xolos, qolgani esa to'liq to'kilib ketadi. Shuning uchun 3-4 yillik sikl bo'yicha o'tkazilgan keshish usullari va darajalari daraxtda fiziologik jarayonini to'gri va maqbul o'tishga sharoit yaratib, pirovard natijada esa qoldirilgan hosil ko'rsatkichlari yuqori va sifatli shakallanadi.

Xulosa. Yuqori sifatlari meva doimiy hosilini shakllantirish uchun qishgi-bahorgi me'yorashtiruvchi keshish tadbirini qo'llash jarayonida daraxt tanasi shox-shabbalarida har yili uch yillik novdalarining mumkin bo'lган maksimal sonini yetishtirish mumkin bo'lган maksimal sonini yetishtirish zarur. Mevali daraxtlarga parvarishlash bo'yicha yuqori sifatli kompleks agrotexnik tadbirlar tizimining barcha usullarini va keshish usuli hamda darajalarini o'z vaqtida bajarish yordamida rejalshtirilgan meva hosilini yetishtirishga hamda yuqori hosil olishiga imkon yaratiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Yunusov R. Nazarova S.M., Ganiyeva F.A., Ataeva Z.A. Influence of cultivar combinations and seedling thicknegg of the formation of photometric indicators and productivity of pear trees in intensive orchards.//Academicia An international multidisciplinary Research Journal. Vol. 11.Issue 9. September, 2021, 328-331 p.
2. Ganieva F.A., Yunusov R. //Studying the different formations of apple trees in intensive orchards. Vol. 2. No.4.April 2021.
3. Тўхтаев Ш.Х, Юнусов Р. Фаниева Ф. Бухоро вилояти Жондор тумани шароитида ўзга ўргимчакканасига қарши курашишда янги тежамкор. “Веритетек 1,8%” э.м.к. препаратини кўллаш самараодорлиги.// Вестник Хорезмской Академии Маъмуна, 2.2021, 70-73 б.
4. Ҳожиев С.С., Нафетдинов Ш.Ш., Тешаев Б.Ш. Морфология развития структурных частей кроны персика сорта Лола при различных схемах размещения. // Вестник Хорезмской Академии Маъмуна, 2.2021, 73-75 б.
5. Шамсиева Ў., Юнусов Р., Фаниева Ф., Атаева З. Когон тумани Саломов Шахобиддин номидаги фермер хўжалиги кадимдан сугориладиган ўтлоки тупрокларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш ва кузги буғдой етиштириш омиллари. // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. 2021, № 9, 126-128 б.
6. Artikova H.T. Sattorova M.M. Jumaev J.J. Prevent Salinization and increase the fertility of irrigated sandy and loamy soils.// The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering (ISSN-2689-1018). March 11, 2021.1. 128 p.
7. Юнусов Р. Назарова С.М., Каримов Б.Ш. Бухоро воҳаси шароитида олма дарaxtlarinинг ўсиши, rivожланиши ва ҳосилдорлигини кесиши усуслари ва даражаларига боғлиқлиги. // “Дурдана”, Бухоро 2020, 126 б.
8. Ганиева Ф.А., Юнусов Р. Бухоро вилояти шароитида интенсив олмазорларда ўсиши ва ҳосилдорликнинг навпайвандтаг комбинациялари ҳамда кўчат қалинлигига. //Дурдана 2021, 102 б.
9. Artikova H.T. Salimova H. The factors of Formation of soil in Gijduvan district of Bukhara Oasis, climate, physical-mechanical properties of irrigated soils.// International journal of Aquatic Science. ISSN: 2008-8019. Vol 12, Issue 03, 2021. pp. 1929-1935
10. Salimova H. Current analytical state of meloirative condition of irrigated soils of gjiduvan district of Bukhara region.// European Journal of Agricultural and Education (EJARE) ISSN (E): 2660-5643. Journal Impact Factor: 5,255. Vol. 2, Issue 6, June, 2021. Pages. 46-48
11. Ikramova M.L. Atoeva R.O., Rakhmatov B.N. //Application of the immunofliencelant Zeroks for dedermination of cotton plant. V.2021, Volume:10, Issue 9, pp. 224-250.
12. Икромова М.Л. Юнусов Р., Раҳматов 6.Н. Гафаров И.Ч. //Влияние препарата Зерокс в.к.р. (д.в. 3000 мг/л коллоидного серебра) на урожайность и грибковые заболевания хлопчатника в условиях Бухарской области.// Журнал Столица науки, 2018 г., 5 (5), электрон журнал.